

Mamlakatimizda soliq ma'murchiligiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali soliq bazasini kengaytirish istiqbollari

Abdullayev Shahbozbek Nodirsho o'g'li

O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi

huzuridagi Fiskal institut magistranti

***Annotatsiya.** Soliq ma'murchiligiga raqamli iqtisodiyot tushunchasi, uning iqtisodiy mohiyati hamda rivojlantirish masalalari yoritib o'tilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, ortiqcha xarajatlarni kamaytirishga oid, shuningdek, raqamli iqtisodiyot rivojlanishining aholi bandligiga ta'siri, milliy raqamli iqtisodiy xavfsizlik tizimini yaratish, yalpi milliy mahsulotdagi axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasining ulushi, aloqa va axborotlashtirishning ayrim ko'rsatkichlari tahlili kabi masalalar ko'rib chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyasi, axborotlashtirish va raqamlashtirish jarayoni, telekommunikatsiya tarmoqlari, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, milliy raqamli iqtisodiy xavfsizlik, dasturiy vositalar.*

Kirish:

Jahon mamlakatlari soliq to'lovchilari uchun soliq to'lash ularning hukumat bilan eng qiyin va ko'p vaqt talab qiladigan o'zaro munosabatlaridan biridir. Shu sababli soliq idoralari o'z tizimlarini avtomatlashtirishni amalga oshirishmoqda. Texnologiyani o'zlashtirish muvaffaqiyatli va barqaror soliq islohotlarini amalga oshirishga, raqamli iqtisodiyotning to'g'ri soliqqa tortilishini ta'minlashga va rioya qilish yo'lidagi to'siqlarni kamaytirishga imkon beradi. «Mobil to'lov provayderlari, elektron kassa apparatlari, onlayn bozorlar va boshqa raqamli manbalardan olingan global ma'lumotlar hajmi 2020-yildan 2024-yilgacha qariyb uch barobar oshishi kutilmoqda». COVID-19 pandemiyasi sharoitida raqamli tizimdan soliq

ma'muriyatchiligida foydalanishni ayniqsa dolzarb qildi.

Yangi O'zbekistonda yuqori texnologiyalarga asoslangan, innovatsion va raqamli iqtisodiyotga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Hozirgi davrimiz xususiyatlari dunyoning etakchi mamlakatlari "To'rtinchi sanoat inqilobi", "Aqlli iqtisodiyot", "Innovatsion iqtisodiyot"ga o'tayotgani bilan bog'liq [1]. Dunyoning istalgan mamlakatida iqtisodiyotni raqamlashtirish kompleks xarakterga egadir. Ushbu jarayon moliyaviy tartibga solish tizimiga, ishlab chiqarish va savdo sektoriga, ijtimoiy segmentga ta'sir qiladi. Rivojlanishning ushbu bosqichi amalga oshirilmasa, davlat xalqaro bozorlarda va siyosiy maydonda boshqa davlatlar bilan to'liq raqobatlasha olmaydi. Iqtisodiyotni moderni- zatsiyalashda kechikish milliy miqyosda harakat suverenitetini yo'qotish bilan bog'liq bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish belgilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- elektron to'lovlar va bank ichidagi hisob-kitoblarning avtomatlashgan axborot tizimini joriy etish;
- fond birjalarida onlayn savdoni rivojlantirish;
- elektron tijorat;
- iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektoriga IT sohasining yutuqlarini jalb qilish.

Bugungi kunda iqtisodiyotni raqamlashtirish masalasi yangi O'zbekistonda davlat darajasiga ko'tarilgan bo'lib, bu borada keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologik rivojlanish sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotning jadal o'sishisiz tasavvur qilish qiyin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga 2020-yil 25-yanvarda yo'llagan Murojaatnomasida 2020-yil - "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinganligi va ushbu murojaatnomani nafaqat o'tgan yilga qo'llanma va yo'llanma sifatida, balki yaqin o'rta muddat uchun O'zbekistonning taraqqiyot yo'lini belgilab beruvchi dastur, fundamental ahamiyatga ega bo'lgan hujjat sifatida baholash mumkin.

Soliq tizimi normal holatda amal qilishi uchun bu jarayonni tashkil qilish, uni

boshqarishning mexanizmlarini yaratish, soliqlarni byudjetga jalb qilish va ularni undirish bilan bog'liq tavakkalchiliklarni bartaraf etish, mamlakatda joriy etilgan soliqlarni undirish borasidagi faoliyatining funksional xususiyatlarini aniqlash, soliq to'lovchilarga nisbatan munosabatlarning umumiy va aniq yondashuvlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli organlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va bu jarayonda boshqaruv tamoyillarini ishlab chiqish, soliq to'lovchilarning madaniyati, ularning soliq siyosatiga nisbatan munosabatlarini baholash, davlat byudjetiga solikli daromadlarning kelib tushish jarayonlarini ilmiy asosda amalga oshirish (soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirish), soliq tizimining turli bosqichlari va elementlarida yuzaga keladigan turli darajadagi tavakkalchiliklarni baholash va ularning salbiy ta'sirini kamaytirish va shu kabi muhim jarayonlar borki, bularni e'tiborga olmasdan soliq tizimining samarali ishlashini tashkil etish amri maholdir.

Bu jarayonlar esa soliq tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lgan soliq menejmentiga bo'lgan ehtiyojni va uning amal qilishini taqozo etadi. Soliq menejmenti mazmunan umumiy menejmentning ichki mohiyatiga asoslanadi. Menejment kategoriyasining o'zi lug'aviy jihatdan turlicha mazmunga ega. Masalan, ingliz tilida management, manage – boshqarish, boshqaruv, ma'muriyat degan ma'nolarni, italyancha maneggiare – instrumentlar bilan muomala qilish, lotin tilida manus – qo'l, fransuz tilida manage – xo'jalik yuritish, boshqarish degan ma'nolarga ega. Bundan ko'rinadiki, menejmentning asosida ma'lum bir faoliyatga ta'sir etish, uni boshqarish va u bilan munosabatga kirishish jarayonlari yotadi.

Ushbularga asoslanib, soliq sohasidagi boshqaruv jarayonlarining zamonaviy shakli sifatida soliq menejmenti ham o'z obyekti, subyekti, bosqichlari va xususiyatlariga egadir. Soliq menejmenti deganda davlatning soliq tizimiga kiruvchi elementlarning holati, harakati, ularning o'zaro aloqasi, shuningdek, soliqqa tortish maqsadida to'lovchilar faoliyatiga davlat tomonidan aralashuvi (tartiblash, rag'batlantirish, nazorat qilish)ga oid munosabatlarni umumiy maqsadga yo'naltirilgan holda boshqarishga oid ilmiy asoslangan faoliyat va jarayon tushuniladi. Soliq menejmenti, avvalo, soliq tizimiga kiruvchi elementlarning o'zini

boshqarish hamda ushbu elementlar bilan bog'liq soliq to'lovchilar faoliyatini boshqarish makonlarini qamrab oladi. Shu jihatdan soliq menejmentining ikki tomonini ko'rish mumkin.

Xulosa va takliflar.

Chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibini takomillashtirish, zamonaviy axborot echimlarini joriy etish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish, shuningdek, ushbu sohada ta'sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish.

Адабиётлар/Литература/Reference:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi- Tosh: G'.G'ulom 2020.- 640 b.

O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.